

KUNGABOQAR O‘SIMLIGINING XALQ TABOBATIDAGI AHAMIYATI

Abdullajonova Moxlaroyim Uchqun qizi¹,
Abdullajonova Yulduzzon Uchqun qizi²,
Toshboyeva Mohigul Qahramon qizi³

¹Andijon davlat universiteti, tabiiy fanlar fakulteti, 4-bosqich talabasi

²Andijon davlat universiteti, tabiiy fanlar fakulteti, 2-bosqich magistranti

³Andijon davlat pedagogika instituti, aniq va tabiiy fanlar fakulteti, 3-bosqich talabasi

abdullajonovamoxlaroyim2@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kungaboqar o‘simligining dorivor xususiyatlari va xalq tabobatida qo‘llanish usullari haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: Dorivor o‘simlik, kungaboqar moyi, kasallik, sintetik dorilar, xalq tabobati.

IMPORTANCE OF SUNFLOWER PLANT IN FOLK MEDICINE

Abstract: This article provides information about the medicinal properties of the sunflower plant and its use in folk medicine

Keywords: medicinal plant, sunflower oil, disease, synthetic drugs, folk medicine.

KIRISH

Insoniyat hayoti o‘simlik dunyosi bilan chambarchas bog‘langan. Sababi, o‘simliklar tirik organizm uchun asosiy ozuqa manbai hisoblanadi. Odam zoti borki, xastalik ham bor. Shu sababli, Yer yuzida bashariyat paydo bo‘lishi bilan o‘simliklarning dorivorlik xususiyatlari o‘rganila boshlangan va shu davrda xalq tabobati vujudga kelgan. Ajdodlarimiz qadimdan o‘simliklarni faqatgina oziq- ovqat sifatida emas, dori darmon sifatida ham foydalana bilishgan. Yillar davomida dunyo olimlari xalq tabobatini rivojlantirgan. Masalan, buyuk qomusiy olim, tabib va faylasuf Abu Ali ibn Sino(980-1037) 1500ga yaqin o‘simliklarning dorivorlik xususiyatlarini o‘rgangan. Uning olamga mashxur “Tib qonunlari” kitobida shifobaxsh o‘simliklardan tibbiyotda foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar berilgan. Kasalliklarning davosi tabiatning o‘zidaligi bir necha marotaba ta’kidlangan. Shubhasiz aytish mumkin—“Tabiat bu Yaratganning bizga in’om etgan mo‘jizasi”. Unda inson hayot kechirishi, oziqlanishi va salomatligi uchun barcha sharoitlar mavjud. Bir necha ming yillardan buyon insonlar tabiatdagi dorivor o‘simliklardan, hayvonlardan shifobaxsh moddalarni

ajratib olib, undan tayyorlangan vositalarni o‘zlari va boshqalarning salomatligini saqlashda foydalanib kelishmoqda. Hozirgi zamonaviy tibbiyotning asosi ham xalq tabobatidir.

XX asrga kelib kimyo laboratoriyaning sintetik birikmalar olish jadal rivojlandi. Kuchli ta’sir etuvchi moddalar sun’iy ravishda sintez qilinib, farmatsevtika sanoatida homashyo sifatida qo’llanila boshlandi va hozirgacha davom etib kelmoqda.

Har bir inson sog‘lom bo‘lishni, uzoq umr ko‘rishni istaydi. Xastalangan inson sintetik dori vositalaridan har doim ham kutilganidek ijobiy davo topmaydi. Chunki, sintetik preparatlari ko‘p hollarda nojo‘ya ta’sir etib, turli salbiy oqibatlarga olib keladi. Tabiat ne’matlari asosida tayyorlangan shifobaxsh dori-darmonlar kasallikni bartaraf etibgina qolmay, hujayralarni oziq moddalar bilan ta’minlaydi. Dorivor o‘simpliklardan tayyorlangan davolovch vositalar zararli emas, salbiy asoratlar qoldirmaydi. Xamyonbop narxdaligi bilan ham kimyoviy preparatlardan avzal. Kungaboqar o‘simpligi va undan tayyorlangan tabiiy dori vositalari ham shular jumlasidan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kungaboqar-murakkabguldoshlar oilasiga mansub, bir yillik o‘simplik. Bo‘yi 4m gacha bo‘ladi. Poyasi tik o‘suvchi, qattiq tuklar bilan qoplangan. Bargi-oddiy, tishsimon qirrali. Poyaning yuqori qismida joylashgan barglari- tuxumsimon, pastki qismidagilari- yuraksimon bo‘lib, poyaga uzun band bilan ketma-ket birikkan. Gullari-sariq rangli, poyaning so‘ngida joylashgan savatchada to‘plangan. Iyun-iyul oylarida gullaydi. Mevasi- pista. Qora va oq ranglari mavjud. Avgust-sentabr oylarida pishib yetiladi.

Kungaboqarning Vatani-Shimoliy Amerika. U yorug‘sevar, qurg‘oqchilikka chidamli o‘simplik. Kungaboqar Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan. Dunyo bo‘yicha Rossiya, Argentina, Hindiston, Ukraina va AQSh kungaboqar yetishtirish bo‘yicha yetakchilik qiladi. O‘zbekistonda- Buxoro, Qashqadaryo, Toshkent va Farg‘ona vodiysida ekiladi.

NATIJALAR

Kungaboqar o‘simpligi oziq-ovqatdan tashqari kosmetologiya, tibbiyot, xalq tabobati va boshqa sohalarda ham keng qo’llaniladi.

Xalq tabobatida kungaboqarning gullari, barglari va urug‘lari qo’llaniladi. Kungaboqarning urug‘i tarkibida- moy, oqsil, uglevodlar, fitin moddalar mavjud. Barglari o‘zida karotin, kauchuk, flavonoidlar, organik kislotalar saqlaydi. Gullarida-bo‘yoq moddalar, spirtlar bor. Kungaboqar o‘simpligi shifobaxshligi sababli, miyya va jigar tiqilmalarini ochadi, miyyani tozalaydi, asabni mustaxkamlaydi, me’da faoliyatini yaxshilaydi. O‘pka yarasi, sariq kasali, ich qotishida davo bo‘ladi.

Zamonaviy tibbiyotda kungaboqar bargi va gulidan tayyorlangan preparatlardan ishtaxa ochishda, urug‘idan olingan moydan ichni yumshatuvchi dori sifatida foydalaniladi. Mahalliy aholi kungaboqar mag‘zidan olingan moyni kundalik iste’mol uchun ishlatadi. Chunki, kungaboqar moyi- vitamin va minerallarga boy, organizm uchun zarur bo‘lgan makro va mikro elementlarni o‘zida saqlavchi, xavfsiz va ommabop oziq-ovqat moyi hisoblanadi.

MUHOKAMA

Quyida turli xil kasalliklarni davolash va oldini olishda kungaboqar o‘simgidan foydalanish bo‘yicha samarali xalq tabobati usullari keltirilgan:

-Asabiylidka- kungaboqarning qovurilmagan mag‘zidan kuniga ikki mahal 100g dan iste’mol qilish kerak.

-Arteriya qon tomirlari torayib, yurak faoliyati buzilsa- uplash oldidan 250g qatiqqa bir osh qoshiq kungaboqar moyidan solib aralashtirib ichish lozim.

-Revmatizm kasalligida- kungaboqar gulsavatchasini maydalab, bir osh qoshig‘i ustiga 200g qaynoq suv quyib yarim soat damlab qo‘yiladi, suzib olib kuniga uch mahal ikki osh qoshiqdan ichiladi.

-Buyrak-tosh kasalligida- bir hovuch maydalangan kungaboqar ildizi ustiga uch litr qaynoq suv quyib, bir soat damlanadi va uch kun davomida ichiladi. Davolanish bir oy davom etadi.

-Darmonsizlikda kungaboqarning soyada quritilgan sariq gullaridan uch osh qoshiq olib, ustiga bir litr suv quyib 10-12 soatga damlab qo‘yiladi. So‘ng, suzib olib kuniga uch mahal ovqatdan oldin bir stakandan ichiladi.

-Isitma ko‘tarilganda- kungaboqarning bargi va gulidan 30g olib, ustiga 250g qaynoq suv quyib 15 daqiqa damlagandan so‘ng ichiladi.

-Yo‘talda- kungaboqar tanasining ichki oq qismidan uch qoshig‘i ustiga yarim litr suv quyib, past olovda qaynatiladi. Qaynatmadan kun davomida ichib yuriladi va tomoq chayiladi.

-Jigar sirrozida- kungaboqar moyidan och xolatda, kuniga uch mahal, bir osh qoshiqdan ichiladi.

Yuqorida keltirilgan xalq tabobati usullaridan foydalanishdan oldin shifokor yoki malakali tabib bilan maslahatlashing!

XULOSA

Xalq tabobati usullari yordamida sintetik preparatlarsiz, tabiiy, ekologik toza shifobaxsh o‘simgiliklar va ulardan tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shilmalaridan foydalanib, turli xildagi kasalliklarni samarali davolash va oldini olish mumkin.

O‘zbekiston florasida keng tarqalgan kungaboqar turkumi turlarining o‘simpliklar qoplamida tutgan salmoqli o‘rnini hisobga olib, kelgusi ilmiy izlanishlarda shifobaxshlik xususiyatlari yuqori bo‘lgan kungaboqar o‘simpligidan dorivor vositalar ishlab chiqarish amliyotga joriy etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.R.Asqarov.(2019).”Tabobat qomusi”-Toshkent.Mumtoz so‘z.542-549b
2. I.R.Asqarov.(2021).”Sirli tabobat”-Toshkent.Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi.3-10b
3. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2018-yil 12-oktabrdagi PQ-3968-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
4. E.T.Berdiyev,E.T.Axmedov.(2017).”Tabiiy dorivor o‘simpliklar”-Toshkent.18-31b